

qo'lidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni kelgusida o'qishni yaxshi o'zlashtirishi, maktabga moslashuvini ta'minlash ularning maktabgacha ta'lim tashkilotlariga jalb etilganligi, bu bilim ta'limga qamranganligi alohida ahamiyatga ega va buni ota-onalarga singdirish lozim. Har bir maktabgacha ta'lim tashkiloti jamoasi o'z hududida yashovchi oilalarning tarkibini o'rganib, oiladagi 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning ta'limga qamralganlik darajasini o'rganishlari zarur. Bu jarayon ancha jiddiylikni avvalo, har bir oilaning ijtimoiy holatiga e'tibor berishni talab etadi.

Agar bola maktabgacha ta'lim tashkilotiga qamralmagan bo'lsa, u holda buning sababi albatta belgilanadi. Ota-onalarga tegishli tavsiya va maslahatlar berish, tushuntirish va targ'ibot ishlari olib borish rejalashtiriladi. Ota-onalar maktabgacha ta'lim tashkiloti haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, ijobiy fikrlar hosil qilish, tashkilotda tashkil etiladigan ta'limiy jarayonga, mahalla va maktab hamkorligida uyushtirilgan tadbirlarga ota-onalarni jalb etish ham muhim bosqich sanaladi.

Ota-onalar ongida bolaning maktab ta'limga tayyorligini shaxsan masulligi bilan amalga oshirilishi haqida tushuncha hosil qilish kerak. Ota-onalar o'z farzandlarini, albatta maktabgacha ta'lim bilan qamralishiga sharoit yaratishlari lozimligini tushunib yetishlari kerak. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari davlat tomonidan belgilangan vazifalarni izchil bajarib, maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishi, ruhiy-ijtimoiy yo'nalishda ko'nikma va malakaga ega bo'lishini hamda aqliy rivojlanishini ta'minlaydi. Yana shuni alohida ta'kidlash lozimki, oilani ta'limga jalb qilish maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishga qaratilgan har qanday dasturning muhim tarkibiy qismi sanaladi.

Quyida e'tiboringizga havola etilayotgan tavsiyalarimiz aynan maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamralmagan bolalar, ularning ota-onalari bilan ishlashga qaratilgan. Ulardan o'z faoliyatimizda ijobiy yondoshib foydalanishingiz mumkin.

MTT hududida farzandlari ta'limga qamralmagan oilalar bilan tanishish so'rovnomasi:

- Ism-sharifingiz ?
- Nechta farzandingiz bor ?
- Ularning nechtasi o'z vaqtida MTTga borgan?
- Maktabga boradigan farzandlaringiz bormi ?
- Maktabgacha yoshdagi bolalaringiz bormi?
- MTTga bormasligining sababi nima?
- Tez-tez kasal bo'lib qolyapti.
- O'zim ishlayman, uydaman.
- Uyimizga bog'cha yaqin emas.
- Boshqa bolalarim ham bog'chaga bormagan.

Agar farzandingizni MTTga olib borish imkoni bo'lganda MTTga nisbatan

qanday talablar qo‘ygan bo‘lardingiz?

-Ta‘lim sifatini ko‘tarish choralari ko‘rilsa.

-Maktabga tayyorlashda yordam berilsa.

-Bolalarning sog‘lom ovqatlanishiga e‘tiborni kuchaytirilsa.

-Bolalar sportiga e‘tibor ko‘proq bo‘lsa... boshqa takliflar va h.z

Bola rivojlanishida bu jarayonning har bir davri alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa maktabgacha yoshda bola butun hayoti davomida unga asqotadigan ma‘lumotlarning 70 foizini o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘lar ekan, shu davrda u o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z vaqtida shakllantirish zarur.

### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Musurmonova O. Oila ma‘naviyati va milliy g‘urur. O‘qituvchi T;2000

2. Maktabgacha ta‘lim muassasalari tarbiyachilari uchun o‘quv moduli “Maktabgacha ta‘lim muassasasi va oila hamkorligi” T;2011

## **TA‘LIM SIFATINI OSHIRISHDA MAKTABGACHA TA‘LIMNING O‘RNI**

*N.Sh.Jumanova, JDPI “Maktabgacha ta‘lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi*

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosan XVII asrda Y.A.Komenskiyning didaktik tamoyillari asosida shakllanib, hozirda dunyodagi maktablarda eng ko‘p qo‘llanayotgan sinf-dars tizimidan turli yo‘nalishlarda takomillashtirish maqsadlarida yaratilib, hozirda turli yo‘nalishlarda rivojlanmoqda.

Pedagogik texnologiya jarayonini takomillashtirish, uni bola shaxsiga yo‘naltirishga asoslangan pedagogik texnologiyalar: Hamkorlik pedagogikasi, ta‘limning insonparvarlikka asoslangan texnologiyasi va boshqalar hisoblanadi.

O‘quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil qilishga asoslangan pedagogik texnologiyalar: Tabaqalashtirilgan, individuallashtirilgan, dasturlashtirilgan ta‘lim texnologiyalari, ta‘limning jamoa usuli, guruhli, kompyuterli ta‘lim texnologiyalari kabilar kiradi.

Tabiatga muvofiqlashtirilgan pedagogik texnologiyalar: bolaning tabiiy imkoniyatlari, ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning tabiiy imkoniyatlari va boshqa tabiatga muvofiq imkoniyatlardan to‘liq foydalanishni amalga oshirishga asoslangan pedagogik texnologiyalar kiradi.

Xususan, maktabgacha ta‘limda rivojlantiruvchi ta‘lim texnologiyalari: bola shaxsining ijobiy sifatlarini, ayrim sohalardagi bilimlarini ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalaridir.

Bulardan tashqari xususiy (o‘quv fanlari) pedagogik texnologiyalari, alternativ

hamda mualliflik pedagogik texnologiyalari yo'nalishlari ham mavjud.

Shuningdek, hozirda pedagogik texnologiyalarning boshqa yo'nalishlari ham mavjud bo'lib, ulardan asosiylari empirik, kognitiv, evristik, kreativ, inversion, integrativ, adaptiv, inklyuziv pedagogik texnologiyalardir.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida aksariyat tarbiyachilar (xalq ta'limi tizimida olib borilayotgan qator dasturlar - "Global ta'lim", "Bolaga nisbatan do'stona munosabatdagi maktab", "Maktab ta'limini rivojlantirish", "Bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim" va boshqalarda ishtirok etgan tarbiyachilar bundan mustasno) o'z faoliyatlariga zamonaviy usullarni ilmiy maqolalar, risolalar, mahalliy ilg'or tajribalarni o'rganish orqali tatbiq etib kelmoqdalar.

Tarbiyachilar bolaga tayyor fikr bermay uning ongida borliqni anglashga imkon yaratishi va bolani o'zini o'ylashga, fikrlashga yo'naltirish zarur.

Jumboqli o'yinlar orqali mashg'ulot jarayonida bolalarning qobiliyatini o'stirish bilan birga, ularda hozirjavoblik, qiyin vaziyatdan to'g'ri yo'l topishga yordam berish xususiyatlari tarbiyalanadi. Masalan, "Oq va qora" o'yini orqali bolalarga biror jismning yaxshi va yomon, salbiy va ijobiy xususiyatlarini so'zlab berishga o'rgatiladi.

Oq rangdagi doirachalarni ko'rganda, bolalar shu buyumni yaxshi sifatlarini aytadilar. Qora rangdagi doirachalarni ko'rganda esa qarama-qarshi jihatlari topiladi.

Yuqorida aytilgan fikrlar umumlashtirilganida, quyidagi xulosaga kelishi mumkin. Ta'lim-tarbiyaning a'naviy ish shakllarini taqqoslaganda, ta'limning maqsadi avval bolalarga bilim berish, ularning ko'nikma, malakalarini shakllantirish bo'lgan bo'lsa, endi bilim berish bilan bir qatorda, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat bo'ladi. Ishning umumiy shakli eslab qolishdan mustaqil fikrlash, izlanishga aylanadi.

Tarbiyachining asosiy maqsadi "Men kabi bajar"dan, "Muammolar yechimini mustaqil o'yla"ga aylanadi. Tarbiyachining o'zini "Mening so'zim qonun"dan hamkorlikka intilish bo'ladi. Pedagog va bola o'rtasidagi muloqot turi monologdan dialogga aylanadi.

Mazkur texnologiya har bir bolaning namunali tahsil olishi, guruhga muvaffiqiyat olib kelishini anglagan holda ularni muntazam va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, topshiriqlarni sifatli bajarishga, o'rtoqlariga hamkor bo'lib o'zaro yordam uyushtirilishiga zamin tayyorladi.

Bolalarning bilimlarini aniqlashda ularning bir biri bilan emas, balki har bir bolaning kundalik muvaffaqiyati avval qo'lga kiritgan natijasi bilan taqqoslanadi. Shundagina bola o'zining mashg'ulot davomida erishgan ko'rsatkichi guruhga foyda keltirishini anglagan holda mas'uliyatni his qilib, ko'proq izlanishga, bilim ko'nikma va malakalarini puxta o'zlashtirishga intiladi.

Pedagog o'quv dasturidan o'rin olgan mavzuni hamkorlikda o'qitish

texnologiyasining usullaridan foydalanib o'tishini belgilangandan so'ng, bolalar guruhi uchun mavzu materialini mustaqil ishlab o'rganishlariga imkon beradigan topshiriqlarni tuzadi.

Pedagog mashg'ulotni boshlashdan avval bolalarni ikki guruhga ajratib, mavzu bo'yicha tuzilgan o'quv topshiriqlari asosida ularning mustaqil va ijodiy ishlarini tashkil etadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, zamonaviy pedagogik texnologiyani qo'llash bo'yicha joylarda amaliyotchilar, ya'ni tarbiyachilar ishlarini takomillashtirishlari, ijodkor, izlanuvchan tarbiyachilar bilan munozaralar, uchrashuvlar, fikr almashuvlar o'tkazib turishlari lozim. Chunki fikrlardan g'oyalar paydo boladi. Bu esa yangi ishlarni amalga oshirishda, yangiliklar yaratishda yanada qo'l keladi.

## **MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA TARBIYALANUVCHILARNING IJTIMOIIY-HUQUQIIY ME'YORLARI**

*N.F. Nazarova, Jizzax viloyati Do'stlik tumani  
14-umumta'lim maktabi o'qituvchisi*

Shaxs hayoti bevosita jamiyatda, unda istiqomat qiladigan kishilar orasida kechadi. Jamiyat a'zolari o'rtasidagi shaxsaro aloqalarning samarali kechishi bevosita shaxsning ijtimoiy munosabatlar mazmuniga bog'liq. Ijtimoiy munosabatlar mazmuni esa o'z navbatida ijtimoiy-huquqiy me'yorlarning aniqlanganligi, jamiyat tomonidan qay darajada tan olinganligi, amaliy faoliyatda ularga rioya etilayotganligi bilan belgilanadi.

Ijtimoiy-huquqiy me'yorlar aynan shaxsaro munosabatlar negizi, unda aks etuvchi xususiyatlarga muvofiq shakllantiriladi. Garchi shunday bo'lsa-da, biroq, hamisha ham ijtimoiy-huquqiy me'yorlarning mohiyati jamiyat a'zolari tomonidan birdek anglanmaydi. Kuzatishlarga ko'ra ijtimoiy-huquqiy me'yorlarning mohiyati ko'p hollarda huquqiy yo'nalish bo'yicha maxsus ma'lumotga ega, aynan sud-huquq, soliq, bojxona yoki ichki ishlar tizimida faoliyat yuritayotgan shaxs tomonidagina muayyan darajada anglanishi mumkin. Biroq, O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki yillaridayoq fuqarolik jamiyatini barpo etish ijtimoiy maqsad etib belgilanganligi inobatga olinsa, ijtimoiy-huquqiy me'yorlarning mazmunidan barcha fuqarolar birdek xabardor bo'lishlari kerakligining dolzarbligi yanada ortadi.

Shu bois fuqarolarni ijtimoiy-huquqiy me'yorlarning mohiyati bilan tanishtirish, ular to'g'risidagi ma'lumotlarning izchil berib borilishiga erishish jamiyat miqyosida hal qilinishi shart bo'lgan vazifalardan biri sanaladi. Bu vazifaning